

Qayumov Shoxabbos Nurmamat o'g'li
Rus tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi
Ilmiy rabar: rus tili va uni o'qitish
metodikasi kafedrası o'qituvchisi Ochildiyeva D. Sh

OMONIMLAR VA KO'P MA'NOLI SO'ZLARNING FARQLI TOMONLARI

Annotatsiya. Ushbu ma'qolada omonim va ko'p ma'noli so'zlarni farqlashdagi qoidalarga to'xtalib o'tilgan va ko'p ma'nolarni so'zlarning ma'no ko'chishi, ularning qanday bog'liklar bilan ma'nosi ko'chishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: monosemiya, polesemiya, o'z ma'no, ko'chma ma'no, metafora, metonemiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, omonim.

Аннотация. В данной статье рассматриваются правила разграничения омонимичных и многозначных слов, а также освещается, как многозначные слова переносят значение.

Ключевые слова: моносемия, полисемия, прямое значение, переносное значение, метафора, метонимия, синекдоха, многозначность, омоним.

Annotation. In this context, the rules on the differentiation of homonyms and multi-meaning words are touched upon, and many meanings are covered by the meaning transfer of words, what kind of connection they are with the meaning transfer.

Key words: monosemia, polesemia, own meaning, portable meaning, metaphor, metonymy, synecdoxa, function, lexical homonym

So'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'ladi. Bir ma'nolilik hodisasi monosemiya deyiladi. Bir ma'noli so'zlar manosemantik so'zlar deyiladi. *Odam, chumchuq, ravish, tuya* kabi so'zlar bir ma'nolidir.

Birdan ortiq ma'no anglatadigan so'zlar ko'p ma'noli so'zlar deyiladi. Ko'p ma'noli so'zlar polisemantik so'zlar deyiladi. Ko'p ma'noli so'zlarda bosh va ko'chma ma'no bo'ladi.

So'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan atash ma'nosi o'z ma'no sana-ladi. So'zning nutqda boshqa so'zlar bilan bog'lanib hosil qiladigan ma'nosi ko'chma ma'no hisoblanadi. Masalan: *odamning qulog'i-o'z ma'no, qozonning qulog'i-ko'chma ma'noda.*

O'z ma'no va ko'chma ma'noli so'zlar birlashib ko'chma ma'noni hosil qiladi.

Ko'p ma'noli so'zlar quyidagi ma'no ko'chish usullari orqali hosil bo'ladi. Bular: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik.

Nutqimizda eng ko'p tarqalgan ma'no ko'chish turi metaforadir. Metafora bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ma'lum tashqi o'xshashlik asosida ko'chishidir. Masalan: *tandirning og'zi* birikmasida *og'zi* so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. Metaforaning 3 xil ma'no ko'chish usuli mavjud.

1) Narsaning narsaga ko'chishi: Misol: *odamning og'zi – shishaning og'zi, odamning tishi – arraning tishi, odamning qulo'gi – qozonning qulog'i.*

2) Belgining belgiga ko'chishi: *Shirin so'z – shirin xotira, tiniq suv – tiniq xotira, tez yurmoq – tez odam.*

3) Harakatning harakatga ko'chishi: *Suv qizidi-suhbat qizidi, imorat cho'kdi-kayfiyati cho'kdi.*

Narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chishi metonimiya deyiladi. Misol: *Navoiyni qo'lga oldim* deganda Navoiy asarlarini, *Bedilni o'qir edim* deganda ham uning asarlarini tushunamiz. *Samovarda o'tirdik* –choyxona tushuniladi (samovarga o'tirib ko'ringchi kuyib qolasizku). Metonimiyaning bir necha turlari mavjud.

1) Shaxs nomi va uning faoliyatiga aloqador metonimiyalar. *Rentgen apparati* (Rentgen shaxs ishlab chiqargan deyilishi kerak bo'ladi). *Ford avtomobili* (Ford ismli shaxs o'ylab topgan avtomobilga muallifning nomi berilgan.)

2) Joy nomiga aloqador metonimiyalar. *Zarafshon futbol komandasi* (Zarafshonliklardan tashkil topgan futbol komandasi o'rnida.).

3) Metonimiyaning yana bir turida predmetning nomi shu predmetdan hosil bo'ladigan narsaga ko'chadi. *Choy o'simlik-choy ichimlik, olma daraxt-olma meva.* Metonimiya qisqartirishdir.

Sinekdoxa yunoncha – synekdoche birgalikda anglamoq, qo'shib fahmlamoq so'zidan olingan bo'lib, bo'lak orqali butunni yoki butun orqali bo'lakni ifodalashni bildiradi. Sinekdoxa ikki xil usulda yuzaga chiqadi.

1. Butun orqali qism: *Uzukni qo'liga taqdi* (qo'ligamas barmog'iga taqiladi).

Ikkita chumchuq uchib kelib olchaga qo'ndi. (olchagamas olchaning shoxiga)

2. Qism orqali butunni tushunish: *bahor kelishi bilan tuyoqlar soni ko'paya boshlaydi.* (bu yerda tuyoq orqali barcha tuyoqlilar nazarda tutilyapti).

Narsa va hodisal o'rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosida ma'no ko'chish deyiladi.

Vazifadoshlik asosida ma'nosi ko'chayotgan so'zlarning asosan hammasi bitta vazifa bajarish uchun ishlatiladigan buyumlar yoki harakatlarni ifodalaydi. Masalan: *Qushning qanoti - samalyotning qanoti.* (bu yerda qanot so'zi) Asosiy so'z qushning qanoti, tepada aytganimizdek qushning qanotidek samalyotning qanoti ham muvozanat saqlash uchun kerak. Bu ma'no ko'chishida asosiy sabab bajarayotgan vazifaning bir xilligi hisoblanadi.

Omonimlar bu - aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atash ma'nolarini bildirgan so'zlarga shakldosh so'zlar deyiladi. Omonimlarni ikkinchi nomi shakldoshlardir. Masalan: *soz* – cholg'u asbobi, *soz* – puxta ma'qul, *soz* – inoq, o'zaro yaqin. Shakldosh so'zlar bir qarashda ko'p ma'noli so'zlarga o'xshab ketadi. Ularni bir-biridan farqlash kerak. Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zning ko'chma va o'z ma'nolarida qo'llashdan hosil bo'ladi. Shakldosh so'zlar esa shakli o'xshash ikki va undan ortiq so'zlardir. Omonimlarning quyidagi turlari mavjud.

1) Leksik (lug'aviy) omonimlar so'z o'rtasidagi omonimlardir. Misol: *Soch-a'zo, soch-sochmoq*(harakat.)

2) Frazeologik (ibora) omonimlari ya'ni ko'chma ma'noli, ta'sirchanlikka ega bo'lgan birikmalar o'rtasidagi omonimlar. Misol: *Boshga ko'tarmoq-e'zozlamoq, boshga ko'tarmoq-janjal qilmoq.*

3) Grammatik omonimlar ikki xil bo'ladi:

a) Morfologik omonimlar qo'shimchalar o'rtasidagi omonimlardir. Masalan: *to'kin dasturxon* (sifat yasovchi), *ekin* (ot yasovchi) qo'shimcha.

b) Sintaktik omonimlar so'z birikmalari va gaplardagi omonimlardir. So'z birikmalaridagi omonimlik:

yolg'ondan hayron bo'lmoq (yolg'on gapdan hayron bo'lmoq),

yolg'ondan hayron bo'lmoq (yolg'ondakamiga hayron bo'lmoq).

Gaplardagi omonimlik:

Karimjon akam keldimi?

Karimjon, akam keldimi?

(birinchi gapda Karimjon so'zi ega vazifasida kelyapti, ikkinchi gapda Karimjon so'zi undalma bo'lib kelyapti).

Ko'p ma'noli va shakldosh so'zlarni farqlash bilan bog'liq muammo bo'ladi. Avvalo omonim (shakldosh) so'zlar bir xil shaklda bo'lishiga ko'ra ko'p ma'noli so'zlarga o'xshaydi. Lekin ular faqat bir xil shaklga teng so'zlardir xolos. Masalan: *yoz* (fasl), *yoz* (qalamda yozmoq), *yoz* (dastur-xonni yoz.)

Omonim va ko'p ma'noli so'zlar orasidagi farq shundaki, ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari orasida aloqadorlik mavjud bo'ladi, Omonim so'zlarning orasida esa aloqadorlik mavjud bo'lmaydi. Ko'p ma'noli so'zlar qancha ko'p ma'noga ega bo'lmasin, bu ma'nolar o'zaro bog'langan bo'ladi. Omonimlar esa boshqa boshqa so'z bo'lgani uchun ularning ma'nolari o'rtasida bog'lanish bo'lmaydi. Shakldoshlarda umuman bog'liqlik bo'lmaydi. Masalan: *o't-maysa* (ot so'z turkumi), *o't-olov* (ot so'z turkumi), *o't-jigardan ajralib chiquvchi sarg'ish*, *yashil ach-chiq suyuqlik* (ot so'z turkumi), *o't-o'tmoq* 2-shaxs fe'lining buyruq mayli.

Ko'p ma'noli so'zlar o'rtasida esa bog'liqlik bo'ladi. Masalan: ko'z so'zining ko'p ma'nolarini ko'rib chiqamiz.

Ko'z-insonning ko'zi (tirik mavjudotning ko'rish a'zosi)

Ko'z-derazaning ko'zi (ko'chma ma'no (metafora))

Ko'z-yog'ochning ko'zi (ko'chma ma'no (metafora))

Ko'z-uzukning ko'zi ko'chma ma'no (metafora)

Ko'z-osmonga tikilgan ko'zlar (sinekdoxa)

Omonim va ko'p ma'noli so'zlarni farqlashda asosiy qoida ular orasidagi bog'liqlikka qarab aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U. Tursunov, A. Muxtorov, Sh. Raxmatullayev – Hozirgi o'zbek tili. Toshkent «O'zbekiston» nashriyoti – 1992 146-141b.
2. Shukurov Otabek Ona tili – Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi „Fan“ nashriyoti davlat korxonasi – 2019 . 512 b.